



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**B U Y R U Q**

2025- yil "04"03

№ 01-48-son

Chirchiq sh.

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining  
2025-yil 24-fevraldagi 73-son buyrug‘i ijrosi to‘g‘risida**

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda “Ta’lim sohasidagi loyihalar markazi” loyiha ofisining 2024-yil 9-iyuldagi “Oliy ta’lim tashkilotlarida “Registrator ofisi”ni tashkil etish to‘g‘risida”gi 24-q/q, 2-q/q-sonli qo‘shma qarori, shuningdek, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 13-dekabrda 48-q/q-son, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 11-dekabrda 21-2024-q/q-son hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 12-dekabrda 205-son-qarori (ro‘yxat raqami 2859-4, 2024-yil 27-dekabr)da belgilangan vazifalar hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 24-fevraldagi 73-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 24-fevraldagi “Oliy ta’lim tashkilotlarida “Registrator ofisi” faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 73-sonli buyrug‘i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quydagilar:

Chirchiq davlat pedagogika universitetining “Registrator ofisi” to‘g‘risidagi nizomi 1-ilovaga muvofiq;

Chirchiq davlat pedagogika universitetining “Registrator ofisi”da ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish uchun sanitariya qoidalari, normalari va xizmat ko‘rsatish me’yorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Registrator ofisi boshlig‘i B.O‘.Abrayevga:

Universitetining “Registrator ofisi” to‘g‘risidagi nizom talabalari asosida Ofisning ish faoliyatini tashkil etish;

sanitariya qoidalari, normalari va xizmat ko‘rsatish me’yoriy talablaridan kelib chiqqan holda faoliyat yuritish vazifalari yuklatilsin.

4. Ushbu buyruq ijrosining nazorati O'quv ishlari bo'yicha prorektor D.B.Axmadjanovga yuklatilsin.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 24-fevraldagi 73-sonli buyrug'i.

**Rektor**



**G.I.Muxamedov**